

ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA PEDAGOGIK QOBILIYATNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Hamrayeva G.R.

Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

E-mail: guli28@inbox.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli ta'lim muxitida o'qituvchilarning pedagogik qobiliyatini shakllantirish va uning faoliyatida tutgan o'rni, o'qituvchining kommunikativ qobiliyati va unga pedagogik ta'sir ko'rsatish haqida so'z yuritilgan. Maqolada pedagogik qobiliyat haqida, pedagogik qobiliyatning turlari va ularning tavsifi hamda pedagogik qobiliyatni raqamli ta'lim muxitida shakllantirish yo'llari haqida ilmiy qarashlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli ta'lim, qobilyata, axborot va ta'lim muhiti, kommunikativ qobilyat, ko'nikma va malaka.

Annotation: This article talks about the formation of the pedagogical ability of teachers in the digital educational environment and its role in its activity, the communicative ability of the teacher and the pedagogical influence on it. The article provides scientific views on pedagogical skills, types of pedagogical skills and their description, as well as ways of forming pedagogical skills in a digital educational environment.

Keywords: Digital learning, skills, information and learning environment, communication skills, skills and competences.

Аннотация: В данной статье говорится о формировании педагогической способности учителя в цифровой образовательной среде и ее роли в ее деятельности, коммуникативной способности учителя и педагогическом влиянии на нее. В статье представлены научные взгляды на педагогическое мастерство, виды педагогического мастерства и их описание, а также способы формирования педагогического мастерства в цифровой образовательной среде.

Ключевые слова: Цифровое обучение, навыки, информация и среда обучения, коммуникативные навыки, навыки и компетенции.

Kirish:

“Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish”, bo‘lajak mutaxassis larni kasbiy-ijtimoiy tayyorgarligini oshirish, sifatli raqobatbardosh kadrlar qilib o‘qitish, jahonning yetakchi ilmiy-amaliy muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalarini o‘rnatish bugungi kunning muhim va dolzarb vazifalardan biri sifatida o‘rganilmoqda.

Xususan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning bevosita g‘amxo‘rliklari tufayli tarbiyashunoslik fani milliyligi xar sohada ustivor ekanligi, shu aqidalarni o‘zida mujassamlashtirgan pedagogika fanining tarmoqlari, ya’ni ta’lim-tarbiya bilan shug‘ullanuvchi fanlar tizimi ham kengayib bormoqda. Har bir o‘qituvchi va tarbiyachi pedagogik bilimlarni rivojlantirishi, boyitishi, chuqurlashtirishi va mustahkamlashi, pedagogik vazifalar va ularni hal etishda o‘qituvchi iste’dodli, qobiliyatli, ham mahoratli bo‘lishi talab qilinadi.

Jamiyatimizdagi global o‘zgarishlar, fan-texnika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning kun sayin rivojlanib borishi, pedagogdan o‘z ustida tinmay ishlashi, ijodkorligi, yosh avlodga yuksak mahorat bilan yondoshishni talab etadi.

O‘zbekiston kelajagi yoshlar qo‘lida ekanligini ta’kidlar ekanmiz, avvalo, yoshlarni shunday ishonchga javob bera oladigan insonlar qilib tarbiyalash o‘qituvchi va tarbiyachilarning fidokorona mehnati bilan bog‘liqligini chuqur anglashimiz lozim.

Shuni anglashimiz kerakki, hozirgi zamon talablariga javob beradigan yuksak axloqiy- ma’naviy sifatlariga ega bo‘lgan, chuqur bilim va mahorat egasi bo‘lishi lozim. O‘quvchilarda bilimga qiziqish va ishtiyoqni tarbiyalash, ularni hozirgi zamon dunyo taraqqiyoti darajasida bilimlar bilan qurollantirish kerak. Shu bilan birga o‘qituvchi yosh avlodni hayotga, ongli mehnat va kasb tanlashga tayyorlashi, ularning axloqiy, huquqiy, etik va estetik bilim va mahoratlarining rivojlanishiga e’tibor qaratishi lozim. Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o‘qituvchi pedagogik mahorat va pedagogik qobiliyatga ega bo‘lishi zarur. Pedagogik ishga qobiliyatli, ijodkor, iste’dodli kishidagina pedagogik mahorat bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida o‘qituvchilarni ulug‘lab, sharaflab shunday deydilar: “Bugun har bir o‘qituvchi va tarbiyachi, oliygoh domlasi ta’lim va ilm-fan sohasidagi eng so‘nggi ijobiy yangiliklarni o‘quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so‘z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg‘or vakillari bo‘lishlari kerak”. Darhaqiqat bugungi kunda har bir o‘qituvchi va tarbiyachi pedagogik bilimlarni rivojlantirishi, boyitishi, chuqurlashtirishi va mustahkamlashi, o‘z kasbiy kompetentlikka erishishi va uni izchil ravishda oshirib borishi shart. Jumladan, ta’lim tizimida ham.

Mamlakatimiz ta’lim siyosatining asosiy vazifasi uning asosiy mohiyatini saqlab qolish va shaxs, jamiyat va davlatning dolzarb va istiqboldagi ehtiyojlariga muvofiqligi asosida zamonaviy ta’lim sifatini ta’minlash bo‘lib hisoblanadi. Bu kabi islohotlardan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad – yosh avlodning tarbiyasiga atroflicha yondashish, ularning bilim doirasini kengaytirish, o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirishdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili:

Qobiliyat – shaxsning individual psixik xususiyati bo‘lib, muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish subyektiv shart- sharoitini ifodalovchi individual psixologik sifatlar yig‘indisidir. Pedagogik qobiliyatlar tarbiyasi birinchi bo‘lib, XIX asr o‘rtalarida paydo bo‘ldi.

Desterverg birinchi bo‘lib pedagogik qobiliyat, pertseptiv qobiliyatlar haqida gapirib bu masalaga e‘tiborini qaratdi. U pedagogik qobiliyatning kuchiga, pedagogik taktga va qat‘iy erkinlikka e‘tibor berdi.

U o‘qituvchining bilim orttirishlik qobiliyati tushunchasini ilgari surdi. So‘ngra XIV asrning II-chi yarmida P.G.Redkin “axloqiy qobiliyat” tushunchasini ilgari so‘rdi.

K.D.Ushinskiy “Odamni tarbiyalashning eng asosiy yo‘li ishontirishdir, odamning e‘tiqodiga esa faqat ishontirish bilan ta’sir qilish mumkin”

L.N.Tolstoy: “Tarbiyalashning muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun tarbiyalovchi kishilar sira to‘xtamay o‘zlarini tarbiyalay bilishlari kerak” .

A.S.Makarenko o‘z tajribasiga asoslanib, “agar har bir kishi qunt bilan mehnat qilsa, u o‘ziga nisbatan talabchan bo‘lsa, u yaxshi pedagog bo‘lishi mumkin”

Qobiliyat bilimdan farq qiladi. Bilim – bu ilmiy mutolaalar natijasidir, qobiliyat esa insonning psixologik va fiziologik tuzilishiga xos bo‘lgan xususiyatdir. Qobiliyat bilim olish uchun zaruriy shart-sharoit yaratadi, shu bilan birga, u ma’lum darajada bilim olish mahsulidir. Umumiy va maxsus bilimlarni o‘zlashtirish, shuningdek, kasbiy mahoratni egallash jarayonida qobiliyat mukammallashib va rivojlanib boradi.

Shunday qilib, qobiliyatlar individual psixologik xususiyatlar bo‘lishi bilan birga:

- a) ularni shaxslarning mavjud boshqa xususiyatlariga, aqliy sifatlarga, xotira xislatlarga, xarakter fazilatlariga, hissiy kechinmalariga va boshqalarga qarama-qarshi qo‘yish mumkin emas;
- b) shuningdek, qobiliyatlarni shaxsning mazkur xususiyatlari bilan qatorga qo‘yish, ularni ayniylashtirish ham nuqsonlarni keltirib chiqaradi.

Qobiliyat insonni hayotiy faoliyati davomida shakllanadi. Taniqli olim Govard Gardner qobiliyatlarni intellektlar to‘plami deb ta’riflagan. Bizga ma’lumki, bilim bu ilmiy mutolaalar natijasidir. Qobiliyat esa insonning psixologik va fiziologik tuzilishiga xos bo‘lgan xususiyatdir.

Qobiliyat bilim olish uchun shart-sharoit yaratadi. Tug‘ma qobiliyat zehn deb atalsada, iqtidor, iste’dod, donolik-insonning ijodiy faoliyati jarayonida erishiladigan qobiliyatlarning rivojlanish bosqichlari hisoblanadi. Qobiliyatlar shaxsning faqatgina ma’lum faoliyatidagina mavjud bo‘lgan sifatlardir.

QOBILIYAT TURLARI

1. Muloqot qilish

(kommunikativ) qobiliyati. O'qituvchi o'quvchilar bilan dars va darsdan tashqari jarayonlarda, sinfda ijobiy ruhiy iqlim yarata oladi.

2. Voqealarni oldindan ko'ra olish

qobiliyati: Ushbu qobiliyat turi har bir o'qituvchining sergakligida, o'quvchilarning ruhiyatini, ichki dunyosini ko'ra olishida namoyon bo'ladi. Shunda o'qituvchi kim nimaga qodir ekanligini oldindan bashorat qila oladi.

3. Eshitish va his qilish qobiliyati.

Bunday qobiliyatga ega bo'lgan insonlar musiqani sevishadi, ohangni yaxshi his qilishadi, deklamatsiya asosida proza va poeziyani yaxshi o'qishadi, eshitgan narsasini xotirada saqlaydi, ayniqsa, she'r va qo'shiqlarni sevib tinglaydi.

4. Kinestetik (teri-muskul)

qobiliyat. O'qituvchining o'z xatti harakatlari i. muvofiq lashtirish qobiliyati, harakat ohangini his qilgan holda yo'naltiradi, vaqtni harakat sur'ati bilan his qiladi, o'z uchun maishiy qulayliklarni yarata oladi, hayot marhamatlaridan rohatlanishni biladi.

5. Mantiqiy qobiliyat.

Falsafiy mulohazalar yuritishni, raqamlarni matematikani, murakkab masalalarni hal qilishni sevadi, sababiyat va oqibat natijalarini tushunish malakasiga ega, voqelikda asosiylikni ikkinchi darajasidan ajrata oladi;

6. Shaxsning ichki qobiliyati.

O'z-o'zini mukammal bilishi, tushunishi va his qilish qobiliyati, erkin shaxsda ichki qobiliyat mukammal rivojlanadi, irodasi mustahkam, qat'iyatli, har qanday vaziyatda o'z fikr mulohazasini erkin bayon eta oladi.

1-rasm. Qobiliyat turlari va ularning tavsifi.

Qobiliyat o'qituvchining individual imkoniyatlarini xarakterlaydi. Bir xil sharoitda qobiliyatli o'qituvchilar o'z faoliyatlarida ham qobiliyat past kishilarga qaraganda ko'proq yutuqlarga erishadilar.

Qobiliyat shaxsning ham umumiy, ham maxsus rivojlanishida tezroq oldinga siljib borishini, uning ijrochilik va ijodkorlik faoliyatlarida eng yuqori natijalarga erishishini ta'minlaydi. Qobiliyatli kishi mutaxassislikni tez egallay oladi va yuqori mahoratga erishadi hamda ishlab chiqarish, fan yoki madaniyatga yangilik kirita oladi.

Natijalar:

Qobiliyat ko'nikma va malakalarni chuqur egallashda ro'yobga chiqadi. Darhaqiqat, qobiliyatli kishining ko'nikma va malakalari ko'p qirrali va mukammallashtirilgan bo'ladi. Ko'nikma va malakalar yetarli bo'lmagan qobiliyatni birmuncha to'ldirishi yoki qobiliyatning kamchiligini tuzatishi mumkin:

- Ko'nikmalarni umumlashtirib mohirlik ham deb ataydilar. Mohirlik ham qobiliyatning o'zginasidir. Demak, qobiliyat ko'nikma va malakalarning paydo bo'lish jarayonida shakllanadi.
- O'qituvchilarning pedagogik va kommunikativ qobiliyatini takomillashtirish yo'llarini nazariy –amaliy o'rganish.
- Pedagogik va kommunikativ qobiliyatning mohiyatini va shaxsni har tomonlama taraqqiy

etish yo‘llarini ochib boradi hamda o‘qituvchining kommunikativ qobiliyati va unga pedagogik ta‘sir ko‘rsatish jarayonini shakllantiradi.

Pedagogik qobiliyat va kommunikativ qobiliyatni shakllantirishda pedagogik ta‘sir ko‘rsatishning nazariy –amaliy o‘rganish mazmuni.

O‘qituvchilarning pedagogik va kommunikativ qobiliyatini takomillashtirish yo‘llarini nazariy masalalari asosida yoritib berildi.

Xulosa:

Demak, xulosa qilib shuni aytish mumkinki, qobiliyatlar shaxsning (qobiliyatini) faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan bilim, ko‘nikma hamda malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo‘ladigan individual-psixologik xususiyatdir. Agar shaxsning ma‘lum sifatleri yig‘indisi odamning pedagogik jihatdan asoslab berilgan vaqt oralig‘ida egallagan faoliyati talablariga javob bersa, bu narsa bizga mazkur faoliyatga nisbatan qobiliyati bor deb xulosa chiqarishga asos bo‘ladi. Agar boshqa bir odat bo‘lgan shunday holatlarda faoliyat talablariga javob bera olmasa, unday paytda bu unga tegishli psixologik sifatlar boshqacha aytganda qobiliyatlar yo‘q deb faraz qilishga asos bo‘ladi. Bunday odam kerakli ko‘nikma va bilimlarni umumiy egallab olmaydi degan xulosaga borilmaydi.

Qobiliyatlar taraqqiyotining yuksak bosqichiga iste‘dod deb ataladi. Qobiliyatlar murakkab strukturaga ega bo‘lgan psixik sifatlar yig‘indisidan iboratdir. Qobiliyat sifatida namoyon bo‘ladigan psixik sifatlar yig‘indisining struktura natijasida konkret faoliyat talabi bilan belgilanadi va har xil turdagi faoliyatlar uchun turlicha bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этишимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 30.09.2020
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent:”O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. 24-bet.
4. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – Toshkent: SANO- STANDART, 2017.
5. Xodjayev B.X., Choriyev A., Saliyeva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. – Toshkent: IQTISODIYOT DUNYOSI, 2018.
6. Ro‘ziyeva D.I., Tolipov O‘.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: INNOVATSIYA-ZIYO, 2019.
7. Mutalipova M.J., Xodjayev B.X. Qiyosiy pedagogika. Darslik. –Toshkent: TDPU, 2015.
8. Юзликаева Э., Мадьярова С., Янбарисова Э., Морхова И. Теория и практика общей педагогики. Учебник. – Toshkent: ТГПУ, 2014.

9. Калдыбекова А.С. Жалпы педагогика теориясы және практикасы. I. Педагогика теориясы. – Toshkent: ТДПУ, 2013.
10. Pedagogika/Nopedagogik Oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. U.Inoyatov, N.Muslimov, D.Ro'zieva, M.Usmonboeva. – Toshkent: TDPU, 2013.
11. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. Darslik. – Toshkent: TDPU, 2012.